

ILM YOG'DUSI

Jumabekova Zilola Saitmurod qizi

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

"Islomshunoslik" ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Mirodil Xaydarov

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

"Ijtimoiy fanlar va huquq" kafedarsi dotsenti, (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada islom olamidagi faqiha, olima ayollarning hayoti, ulaning ibratli ilm yo'llari yoritilgan. Shuningdek, zamonamiz ayol qizlarining go'zal hayoti uchun namuna va ibratli misollar keltirilgan. Maqolada keltirilgan faqiha, olima ayollar nafaqat muslima ayollar uchun, balki butun jamiyat insonlari uchun ham katta o'rnak bo'la oladi. Maqolada sharq va g'arb olimlari tomonidan Robiyatul Adaviya, Fotima (Samarqandiy), Hadichai Munajjima kabi faqiha, olimalar haqida ko'plab izlanishlar olib borilgani bayon etilgan.

Kalit so'zlari: faqiha, olima, zuhd, avliyo, odob, taqvo, mo'jiza, so'fiy, ibrat,

Ayollar masalalari hozirgi kunda juda nozik masalaga aylanib bormoqda, shunday ekan bu faqiha, olima ayollarni ularga misol tariqasida ko'rsatishimiz kerak deb o'layman. Negaki, hozir zamon tezlik bilan rivojlanayaptiki, hatto mayda maishiy texnikalar biz ayollarning ishlarini osonlashtirmoqda, bundan ko'p ayol-qizlar unumli foydalanishi lozim. Yani ko'p vaqtini befoyda narsalarga emas, balki uyida sahifa ochilmagan kitoblarga qarasa o'zi va atrofdagilar uchun manfaatliroq bo'ladi, shu bilan birga o'zidan katta-kichik (farzandi, jiyan, aka-uka, bobo-buvi) lar ko'rib ularning ham kitobga bo'lgan qiziqishini ortiradi. Eng asosiysi ma'naviy hordiq oladi, fikralsh doirasi kengayadi va keng mushohadali bo'ladi.

Hozirgi kunda ayol-qizlarning ta'lim olishiga keng imkoniyatlar yaratilmoqda va xususan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bu masalalar bo'yicha katta tashabbuslar bilan chiqmoqdalar. Masalan, magistratura bosqichida o'qishni istagan ayol-qizlarga to'lov shartnomasi davlat tomonidan to'lab berilmoqda.

Bu kabi e'tibor Payg'ambarimiz a.s. qoldirgan hadislarda kelgan ayollarga hurmat va ehtirom ila munosabatda bo'lishning yorqin ifodasidir. Islomda ayolga qo'pol so'zlanmaydi, ularga qo'l ko'tarilmaydi. Bunga misol qilib Payg'ambarimiz a.s.ning ahli baytlariga bo'lgan munosabatlari misol bo'ladi. Islomda ayollar jamiyat va boshqaruv sohasida o'zlarining ilmlari va maslahatlari bilan ham katta iz qoldirganlar.

Robiyatul Adaviya, islom olamidagi ilk valiy ayol, uning zuhdi Allohga bo'lgan taqvosi, nafaqat Basra ahli balki, butun Iroq, Xijoz o'lkasi ham uning zohidligidan

o'rnak oladi. **Bu olimadan oldin ham valiy olim ayollar o'tgan, ammo, Alloh qaysidir bandasini pana qilsa, qaysidir bandasini odamlar uchun sevimli qilib qo'yar ekan.**¹ Sakson yoshdan ziyod umr ko'rgan bo'lsalar ham, umrining oxirigacha faqat Allohga qulligini izhor qilish bilan vaqt o'tkazdi. Hamma ayollar onalik baxtini his qilish, farzandini tarbiyalash orzusi bilan yashasa, Robiyatul Adaviya esa yoshligidan boshlab avliyolar bilan birga bo'lishni istadi. Xazrati Robiyadan so'ng u erishgan maqomga hech bir ayol yetisha olmadi. Basra ahlining barcha buyuk dindor ayollari uning atrofida parvona bo'lib ilm olish niyatida edi, Abada bint Shavvol uning jonajon hamrohiga aylandi, nima bo'lsa hamki undan ajralmaslik ilojini qilar edi. Yoshlik davri qiyinchilik va qashshoqlikda yashagan bo'lsada, umuman Alloh man etgan ishlarni qilmadi. Robiya oilada to'rtinchi qiz farzand bo'lib undan oldin uch opasi bor edi. Otasining o'g'il ko'rish istagi bor edi, ammo, uni ko'ngliga tugub qo'ydi. Shunda Payg'ambarimizdan kelgan hadisni sokinlik ila o'qir va o'ziga tasalli berar edi: **"Kimniki uch qizi bo'lsa uni sabr ila o'stirsa, topganidan ularni kiyintirsa ular uning uchun do'zaxdan parda bo'ladi"**².

Robiya ismining ma'nosi to'rtinchi degan ma'noda keladi, to'rt soni turli xil hodisalar bilan bog'liq. Masalan, insonning to'rt davri: chaqaloqlik, yoshlik, o'rta yoshlik va qarilik. To'rt jannat ayoli va to'rt buyuk xalifa. Robiya esa to'rtinchi farzand. Robiya tug'ilgan kezlar otasi tush ko'radi, tushida: "G'am chekma Ismoil"-debdilar, yangi tug'ilgan qizing ulg'ayib ulug' ayol bo'ladi, ummatimdan o'n ming kishi uning shafosatini kutadi, degan nido bo'ladi. Robiyada otasiga bo'lgan mehr kuchli edi, otasi betoblik paytida qizlari uni tuzalib ketishidan umid qilib duoga qo'llarini ochar edi. Bir kuni otasi Robiyani oldiga chaqirib: "Haromga mayl bildirmanglar,, deb oxirgi gapini tugatdi.

Hamma qizlar uchun otalari bir qahramon siymosida edi, har bir qiz otasiga shunday bir g'urur ko'zi bilan qaraydiki, undan oldin hech bir ayol otasiga bunday nazar solmagan bo'ladi. Robiyaning mehri ham shulardanda ziyoda edi. Otasidan so'ng sal o'tmay onasi ham vafot topadi. Boshiga og'ir kunlar kela boshladi, bir tarafdin yo'qchilik bo'lsa bir tarafdin yetimlik. Ular haqiqatdan ham Allohga omonat qolgan edi. Robiya opalari bilan non topish maqsadida ko'chaga chiqadilar va topa olishmaydilar, so'ng oldilariga 3-4 kishi kelib ularni bir biridan ajratishadi va qullikkka sotib yuboradi. Qullikda esa boshiga og'ir kulfatlar solgan xojasi uni tinimsiz qiynardi, Allohning mo'jizasi ila xojasi uni ozod qiladi, so'ng cho'lda sargardonlik kunlar boshlanadi.

Hasan Basriy haqida so'z boshlar ekanmiz, Robiya Adaviyaning birinchi ustoz. U kishiga Umar r.a Xasan "go'zal" degan ismni beradi. Robiya esa dastlabki ilmlarni shu kishidan oladi. Qiyinchilik bilan haj safariga bordilar. Shunda bir tush ko'radi:

¹ Sa'diya Erol Aykoch. "Men Robiya" Misbah nashriyoti, 2023.244-b, 18-B

² Imom Buxoriy "sahih al-Buxoriy" Qomuslar bosh tahririyati, 1991

Payg'ambarimiz tushlariga kirib, "Ey Robiya, meni yaxshi ko'rasanmi? sizni kim sevmaydi Rasululloh, to'g'ri aytding. Ey Robiya, Robbisini sevgan meni sevadi" dedilar. Bu voqeani ko'plab odamlar ozru qilishadi ammo, Alloh xoxlagan kishini bunday baxt bilan o'ziga suyukli qiladi. Robiyaning Allohga bo'lgan ishq shunchalar ediki, hatto butun koinotni yodirar edi. Tazkirot-ul avliyo kitobida Robiya Adviya o'sha davrning shayx va olimlari bilan bo'lgan suxbatlari keltiriladi. Masalan: **"Alloh bandalaridan qaysi ishdan rozi bo'ladi?"-"Shunda dedi- berganiga shukur qilsa, balosiga sabr qilsa, boshiga tushgan har bir ishni yaxshi-yomon ishni Yaratgandan deb bilasa, Alloh xushnud bo'lgay, deya javob berdi. Alloh aytadi: Kim ehson qilsa ehsonning biriga o'n beraman!"**³ Allohni kim do'st tutsa, dildan sevsa, u bandasini aldamaydi, deya ta'kidlaydi.

Hozirgi kunda bu ayollar haqida O'zbekiston Fanlar Akademiyasi yetakchi ilmiy xodimi filologiya fanlar nomzodi Burobiya Rajabova "Alisher Navoiyning, Nasoyim ul muhabbat" kitobida keltirilgan 35 nafar taniqli va ilmli ayollarning ichidan eng mashhurlari: Bibichai Munajjima va Robiyatul Adaviya haqida ilmiy tadqiqotlar olib borgan va o'zning yozgan maqollarida buning o'z aksini topishi mumkin, va bizdek o'quvchi yoshlarga ular haqida bizga kerakli ma'lumotlarni yetkazib berishda katta hissa qo'shgan.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, Robiya Adaviya islom ummatida o'tkan buyuk so'fiy ayollar qatoriga kiradi, u Allohga bo'lgan muhabbatini hamma narsadan ustun qo'yadi, bu esa keltirib o'tkan misollarimni yorqin dalili. Bu olima nafaqat o'zbek yozuvchilari tomonidan e'tirof etilmoqda balki turk va boshqa O'rta Osiyo xalqlari tomonidan hayoti haqida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Asosan Alisher Navoiyning ikki yirik asarlarda Nasoyim ul muhabbat va Hayrat ul abror dostonlarida uning shariat yo'lida qanday yo'l tutgan va xalqa qanday o'rnak bo'lgani haqida bayon etilgan. Hozirgi kunda bu ikki ayolning tutgan yo'li barcha musulmalar uchun o'rnak bo'la oladi. Ular ustida ilmiy ishlar qilinmoqda va ularning qilgan amallari yoshlarining tarbiyaviy ahamiyatiga ta'sir qiladi degan umiddaman, hatto ota-onalar ham bu ma'lumotlardan o'zlari uchun ko'nikmalar shakillantiradi deb o'ylayman. Muhtarrama ayol-qizlarimizga shuni aytish joizki, shu ayollar singari tarixda qolishlari uchun ularga, sabr va toqat, chiroyli muomala, ularda uchragan tirishqoqlikni o'zimizga go'zal o'rnak sifatida olsak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alisher Navoiy. "Nasoyim ul-Muhabbat" (3-qism), 96-b
2. Sa'diya Erol Aykoch. "Men Robiya" Misbah nashriyoti, 2023, 244-b
3. Imom Buxoriy "sahih al-Buxoriy" Qomuslar bosh tahririyati, 1991
4. Farididdin Attor "Tazkirot ul-avliyo" (nashri yo'q)
5. <https://www.iqbol.uz> (rasmiy sayt 03.04.2025)

³ <https://www.iqbol.uz> (rasmiy sayt, 03.04.2025)